

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT
UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**



**FILOLOGIYA TA‘LIMI
MASALALARI:
MUAMMO VA UNING
INNOVATSION YECHIMLARI**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

I-QISM



**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**“FILOLOGIYA TA'LIMI MASALALARI: MUAMMO VA UNING YECHIMLARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO-AMAIL ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI**

I-QISM

2022-YIL 11-MAY

**“ВОПРОСЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМНЫЕ
ВОПРОСЫ И ИХ ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ” СБОРНИК
МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

ЧАСТЬ I

11 МАЯ 2022 ГОДА

**“ISSUES OF PHILOLOGICAL EDUCATION: PROBLEM ISSUES AND
THEIR INNOVATIVE SOLUTIONS” COLLECTION OF MATERIALS OF THE
INTERNATIONAL CONFERENCE**

PART I

MAY 11, 2022



AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TUPROQ RAMZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6525826>

Rajabova M.B

BuxDUdotsenti

Ne'matov Amirxon,

***Annotatsiya:** Maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarida tuproq ramzining badiiy ifodasiga oid tahlillar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Qur'on, himat, tuproq, oshiq, kamtarlik, nafs*

***Annotation:** The article provides an analysis of the artistic expression of the symbol of the soil in the wisdom of Ahmad Yassavi.*

***Keywords:** Qur'an, devotion, earth, love, humility, lust*

***Annotatsiya:** В статье проводится анализ художественного воплощения символа земли в мудрости Ахмада Яссави.*

***Ключевые слова:** Коран, мудрост, земля, любовь, смирение, похот.*

Mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviy turkiy she'riyatga hikmat janrini olib kirgan va shu orqali shuhrat topgan shoir. Hikmatlarida olam va odam muammolari haqidagi o'z falsafiy qarashlarini sodda til bilan bayon qilgan. Shoir inson hayotining mohiyati haqida ko'p mushohadalar yuritadi. O'z qarashlarini diniy manbalar asosida obrazli tasvirlagani bois hikmatlari xalq orasida keng yoyilib, sevib o'qilgan.

Yassaviy hikmatlarida tuproq ramzi ko'p kuzatiladi. Bu obrazning manbasi, abatta, Qur'oni karim hisoblanadi. Ilohiy kitobda inson tuproq va suvdan yaralganligi ta'kidlangan. Jumladan, "Uldur ul zotiki, yaratibdur sizlarni tuproqdin, keyin mayin qatrasidin, keyin uyigan qondin, keyin chiqarur sizlarni (onalar qornidin) bola qilib ..." yoki "Va tahqiq, yaratduk biz insonni loyning xulosasidin" [1,531] kabi oyatlarda inson aslining mohiyati haqida mulohaza yuritilgan. Ahmad Yassaviyning "Asling bilsang obu gil, yana gilga ketaro..." hikmatida ham diniy manbaga tayanilganini sezish qiyin emas.

Yassaviy uchun tuproqsifatlik axloqiy kamolotga erishuv yo'llaridan biridir. Zero, tuproq insonning doyasidir. Inson hayotining davom etishi ham u bilan bog'liq. Shunga qaramay tuproq inson oyoqlari ostidadir.

O'n uchimda nafs havosin qo'lga oldim,

Nafs boshiga yuz-ming balo qamrab soldim.

Takabburni yerga urib bosib oldim,

O'n to'rtimda tufroqsifat bo'ldim mano [2,54].

Tuproq Yassaviy hikmatlarida kamtarlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Yuqoridagi hikmatda insonning eng xavfli dushmani bo'lgan nafsni yengish haqidagi mulohazalarini bayon qilgan mutasavvuf shoir nafsni yengishning eng qulay yo'li "tuproqsifat" bo'lish lozimligini ta'kidlaydi. Takabburlik, manmanlik nafsning hamrohi. Bu illatlar insonni to'g'ri yo'ldan adashtiradi. Shoir hikmatda bunday illatlarni yengan insonni "tufroqsifat"lik fazilati bilan bezangan. Demak, hikmatda tuproq - kamtarlik, xokisorlik ramzi.

Yassaviy hikmatlari tuproqso'zining xok, gil kabi variantlari ham qo'llangan.



Olloh dardi sotqu ermas sotib olsang,
Piru mug'on xizmatida xok bo'lmasang.
Haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasang,

Lomakonda Haqdin saboq oldim mano [2,75].

Tuproq sabr-toqat ma'nosida ham qo'llanishini yuqoridagi hikmatdan ko'rishimiz mumkin. Mazkur hikmatda solikning pir xizmatida sabr qilishi, shu orqali pok zotlardan saboq olib, poklanishi natijasida Haq yo'liga kira olishi badiiy tasvirlangan.

Qul Xoja Ahmad, toat qil, umring bilmom nech yil
Asling bilsang, obi gil, yana gilga ketaro [2,221].

Inson bu dunyoga sinalish uchun keladi. Buni mufassal anglagan Yassaviy faqatgina sabr bilan bu sinovlarni yengishni targ'ib qiladi. Insonning asli bu- suv va tuproq, oxir-oqibat tuproqqa ketadi. Bu bilan umr o'tkinchiligidan ogohlantiriladi.

Olloh degan bandalarni quli bo'lg'il.
Tufroq sifat yo'l ustida yo'li bo'lg'il.
Oshiqlarni kuyib-o'chgan kuli bo'lg'in,
Haq jamolin ko'rsatmasa zolim bo'lay [2,187].

Ahmad Yassaviy eng ko'p ulug'lagan fazilat bu- kamtarlik va sabr. Olloh degan bandalarning yo'li ustidagi tufroq, haqiqiy oshiqlarning kuyib-o'chgan kuli bo'lishlik bu xokisorlikning eng oliy darajasidir. Tuproq ramzi mazkur hikmatda ezgulik, munavvarlik ramzlari sifatida keltirilgan.

Boshim tufroq, o'zim tufroq, jismim tufroq,
Haq vaslig'a yetarmen deb ruhim mushtoq.
Kuydim, yondim, bo'lolmadim hargiz ofoq,
Shabnam bo'lib yer ostig'a kirdim mano[2,78].

Mazkur hikmatda tuproq so'zi uch marta qo'llangan. Bu bir so'zning takrori bo'lsa-da, ma'no qirralari bilan bir-biridan farqlanadi. Hikmatdagi "boshim tufroq" birikmasi orqali ilk olam – Odam Atoga ishora qilingan bo'lsa, "o'zim tufroq" - lirik qahramonning xokisorligiga, "jismim tufroq" – insonning foniy bo'lishiga ishora qilingan. Hikmatda tuproq - tug'ilish, yashash hamda o'lim ramzi bo'lib kelmoqda. Bu esa inkor qilib bo'lmas haqiqatdir.

Oshiqlarni ko'zi giryon, bag'ri vayron,
Parvosi yo'q, nomusi yo'q, yurar uryon.
El ko'zida tufroqdin kam sirri pinhon,
Joni birla yodin aytib yurar ermish [2,170].

Yuqoridagi baytda tuproq "sirlar maskani" ma'nosida qo'llangan. Oshiq "el ko'zidan" o'z sirlarini yashira olmaydi. Tuproq esa sirlar maskan. U qanchadan-qancha sirlarni o'z bag'riga olib, pinhon saqlaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Ahmad Yassaviy hikmatlarida tuproq shaytoniy illatlardan bo'lagan takabburlik, manmanlikni yengish quroli, u tug'ulish, yashash va o'lim ramzi. Bundan tashqari, tuproq poklik, sabr-toqat, umid, ezgulik, muruvvat kabi ma'no-mazmun, sifatlarni o'zida jamlagan.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. –Toshkent: G'afur G'ulom Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991.
 2. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Abdulaziz Mansur tarjimasi. –Т.: “Toshkentisлом universiteti” nashriyot- matbaa birlashmasi. 2004. - 617 b.
 3. Rajabova M. Navoiy va Ogahiy ijodida mifologik obrazlar tasviridagi mushtarakliklar // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
 4. Rajabova M.A. Навоийнинг " Фарҳод ва Ширин" достонида фарзандсизлик мотиви // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
 5. Rajabova M. A. Навоий ижодида қушлар ва ҳайвонлар образининг халқона асосларда ифодаланиши //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
 6. Rajabova M. Навоий муаммоларининг бадиий тақомлида фольклорнинг таъсири //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
- науч ных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Ma'rifat R. Sayfi Saroyi g'azallari badiiyati //Conference Zone. – 2022. – С.22-125.
 - 9.Rajabova, Marifat. Навоий ижодида мифологик образлар. Центр научных публикаций . (buxdu. uz) 1.1 (2020



Abdullayeva G.	ADABIY IZDOSHLIK VA O'ZIGA XOSLIK	248
Отаханова М.	ЧУСТИЙ ЛИРИКАСИДА ҚОФИЯ ЖИЛОЛАРИ	254
Ахмадҷонов П.	РЎЗГОР ВА ОСОРИ САЙФИДДИН МУҲАММАДИ ФАРҒОНЎ	258
Tuychiboyeva N.	BO'LA RUHIYATIDA MIF VA METAFORA TALQINI. (SH.AYTMATOV ASARLARI MISOLIDA)	264
Олимҷонов С.	ҚАҲРАМОН НУТҚИ – ХАРАКТЕР ЯРАТИШ ВОСИТАСИФАТИДА	268
Ne'matov A.	AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TUPROQ RAMZI	274
Абдуллаева Г.	ИСТИҚЛОЛ ЙИЛЛАРИДА ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА ИЖОДИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	277
Abdusalomova M.	ANVAR OBIDJON IJODIDA O'SMIR OBRAZINING YORITILISHI ("YALTIROQ TUGMA") QISSASI MISOLIDA	280
Shokirova R.	HO'JANAZAR HUVAYDO IJODIDA AHMAD YASSAVIY AN'ANALARI	285
Жўраев И.	МАИШИЙ МУАММОЛАР ИБТИДОСИ	290
Найдарова Н.	"ОQ КЕМА" ASARIDAGI MIFIK TALQINLAR	294
Mirzakarimova X.	O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HIKMATNAVISLIK MAKTABINING SHAKLLANISHI	297
Mamiraliyev Q.	ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA JANRLAR MASALARI	302
Хасанова Х., Ikromjonova G.	"DONISHMAND SIZIF" ROMANIDA AN'ANAVIY OBRAZNING NOAN'ANAVIY TALQINI	306
Xolmatov D.	OBRAZLAR TALQINIDA BADIY DETALNING O'RNI	312
Ergasheva Sh.	BADIY ASARLARDA AYOL OBRAZI	318
Эшанова З, Махмудова Д.	ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ИЗУЧЕНИИ ЛИРИКИ ИКБОЛА МИРЗО	322
Mahkamova Sh.	ADABIYOTDA OT OBRAZIDAGI QANOT DETALI	328
Davronova M.	ODIL YOQUBOV QISSALARIDA TASVIR VA TALQIN VOSITALARI ("QAYDASAN, MORIKO?" QISSASI MISOLIDA)	333
Mirzagaliyeva U.	HIKOYANAVIS YOZUVCHI	337
Мўминова Т.	ЭРКИН АЪЗАМ ҚИССАЛАРИДА БАДИИЙ ТАСВИР	341
Abdurahimova M.	NABI JALOLIDDIN IJODIDA PSIXOFIZIOLOGIK VOSITALARNING O'RNI	345
Муҳамедова М.	ПОРТРЕТ – ОБРАЗ ЯРАТИШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ	350
Tojaliyeva N.	"JUDOLIK DIYORI" ROMANIDA TABIAT TASVIRI	353
Uralova D.	ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDA RAMZIY OBRAZLAR OLAMI	358
Воқилонова М.	IQTIDORLI O'QUVCHILARGA ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS USULLARINI TUSHUNTIRISH	363
Абдуллаева В.	XX АСР ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА МАРДИКОРЛИККА ОЛИШ ПОЭЗИЯСИ ҲАҚИДА	368
Воқиева Г.	SAN'ATKOR (XONANDA, SOZANDA) OBRAZINING GENEZISI	373
Sayidolimov J.	SHARQ AGIOGRAFIYASI VA FARIDUDDIN ATTORNING O'RNI	378
Ibragimova N.	MURABBA'I MUSAJJA'GA DOIR NAZARIY QARASHLAR	383
Қаюмова М.	ДАНИЕЛ ДЕФОНИНГ "РОБИНЗОН КРУЗО" АСАРИДА НУТҚ ВА УСЛУБ МУАММОСИ	386